

DUAL TA'LIM – NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Abdumannobova Zulayho

Andijon davlat chet tillar instituti

ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Tarjima nazaryasi va amaliyoti 1- bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Homidova Malohat

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda dual ta'lim tizimining nazariy asoslari, uning mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ta'lim jarayonida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Dual ta'lim modeli nazariya va amaliyotning uzviy uyg'unligini ta'minlovchi samarali mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, mehnat bozoriga mos malakali kadrlar tayyorlashdagi roli ham yoritiladi. Ishda Germaniya tajribasi hamda O'zbekistonda dual ta'limni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan dual ta'limning istiqbollari yuzasidan shaxsiy fikr va takliflar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, nazariya va amaliyot uyg'unligi, kasbiy ta'lim, mehnat bozori, ishlab chiqarish bilan integratsiya, malakali kadrlar, yoshlar bandligi, ta'lim sifati, xorijiy tajriba, Germaniya modeli, O'zbekistonda ta'lim islohotlari.

Annotation: This research paper analyzes the theoretical foundations, essence, and role of the dual education system in the modern educational process. The dual education model is considered an effective mechanism that ensures the integration of theory and practice. The study highlights the importance of cooperation between educational institutions and enterprises, as well as its role in preparing qualified specialists for the labor market. The experience of Germany and the ongoing reforms in Uzbekistan aimed at implementing dual education are examined. The author also presents personal views and proposals regarding the prospects of dual education development.

Key words: Dual education, integration of theory and practice, vocational education, labor market, qualified specialists, industry–education cooperation, youth employment, quality of education, German model, educational reforms in Uzbekistan.

Аннотация: В данной научной работе анализируются теоретические основы, сущность и роль системы дуального образования в современном образовательном процессе. Дуальная модель рассматривается как эффективный механизм интеграции теории и практики. Особое внимание уделяется сотрудничеству образовательных учреждений и предприятий, а также их роли в подготовке квалифицированных кадров для рынка труда. Исследуется опыт Германия и проводимые реформы в Узбекистан по внедрению дуального образования. Автором представлены личные выводы и предложения по дальнейшему развитию данной системы

Ключевые слова: Дуальное образование, интеграция теории и практики, профессиональное образование, рынок труда, квалифицированные кадры, сотрудничество образования и производства, занятость молодежи, качество образования, германская модель, реформы образования в Узбекистане.

Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Mehnat bozorida nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish dolzarb vazifaga aylangan. An'anaviy ta'lim modeli ko'proq nazariy tayyorgarlikka yo'naltirilgan bo'lsa, dual ta'lim modeli nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish orqali samaradorlikni oshirishni maqsad qiladi.

Dual ta'lim tizimi o'quvchiga bir vaqtning o'zida ta'lim muassasasida bilim olish hamda korxonada amaliy faoliyat yuritish imkonini beradi. Bu esa o'quv jarayonini hayot bilan bog'lash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim tizimi ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlari bilan bevosita bog'lashga qaratilgan innovatsion model hisoblanadi. Uning nazariy asosida kompetensiyaviy yondashuv yotadi. Ya'ni, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki o'quvchida muayyan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan

iboratdir. Kompetensiya esa bilim, ko‘nikma va malakaning amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Dual ta‘lim aynan shu jihatni ta‘minlab beradi. An‘anaviy ta‘lim tizimida o‘quvchi asosan auditoriya sharoitida nazariy bilim oladi. Amaliyot esa ko‘pincha qisqa muddatli bo‘lib, o‘qishning oxirgi bosqichida o‘tkaziladi. Bunday yondashuv natijasida bitiruvchilar real ishlab chiqarish jarayoniga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Dual ta‘lim esa bu tafovutni kamaytiradi. O‘quvchi nazariy bilimni o‘zlashtirishi bilan bir vaqtda uni real ish muhitida qo‘llab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon bilimni mustahkamlash bilan birga, mas‘uliyat, intizom, jamoada ishlash kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Dual ta‘lim tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim muassasasi va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga bog‘liq. Ushbu modelda korxonalar nafaqat amaliyot o‘tkazish joyi, balki ta‘lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. O‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilarning talablari inobatga olinadi. Natijada tayyorlanayotgan mutaxassislar mehnat bozoridagi real ehtiyojlarga moslashadi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va ishchi kuchi bozoridagi nomutanosiblikni kamaytiradi.

Xalqaro tajribada dual ta‘lim ayniqsa Germaniyada yuqori darajada rivojlangan. Mazkur mamlakatda dual tizim kasb-hunar ta‘limining asosiy shakli sifatida qaraladi. Ta‘lim jarayoni qat‘iy me‘yoriy-huquqiy asosda tartibga solingan bo‘lib, davlat, savdo-sanoat palatalari va korxonalar o‘rtasida aniq vazifalar taqsimlangan. O‘quvchi korxonalar bilan rasmiy shartnoma tuzadi va o‘qish davomida ma‘lum miqdorda ish haqi oladi. Bu esa yoshlarning moddiy rag‘batini oshiradi va ularning kasbga bo‘lgan mas‘uliyatini kuchaytiradi. Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dual ta‘lim yoshlar ishsizligini kamaytirish va iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Germaniya Federal Ta‘lim va Ilmiy Tadqiqotlar Vazirligi (nemischa: Bundesministerium für Bildung und Forschung – BMBF) — Germaniyada ta‘lim, fan va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi markaziy federal organ hisoblanadi. Vazirlik innovatsiyalar strategiyasini belgilaydi va mamlakatning “bilimlar iqtisodiyoti”ni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vazirlik maktab va kasbiy ta‘lim

siyosatini muvofiqlashtiradi, universitetlar va ilmiy markazlarni qo‘llab-quvvatlaydi, grantlar ajratadi hamda ta‘limni raqamlashtirish jarayonlarini boshqaradi. Shuningdek, federal va hududiy (yerlar) darajadagi tashabbuslarni muvofiqlashtiradi.¹

Shu o‘rinda Yevropa kasbiy ta‘limni rivojlantirish Markazi haqida ma‘lumot berib o‘tsam. Yevropa Kasbiy Ta‘limni Rivojlantirish Markazi (CEDEFOP)² — Yevropa Ittifoqining kasbiy ta‘lim va o‘qitish siyosatini tahlil qilish hamda rivojlantirishga ixtisoslashgan agentligidir. U 1975 yilda tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda Gretsiyaning Saloniki shahrida faoliyat yuritadi. Agentlik Yevropa Komissiyasi doirasida bandlik, ko‘nikmalar va ta‘lim sohasidagi siyosatni ilmiy-analitik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. CEDEFOPning asosiy vazifasi kasbiy ta‘lim tizimlarini takomillashtirish, mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilish hamda malakali ishchi kuchini shakllantirishga ko‘maklashishdan iborat. Tashkilot turli statistik ma‘lumotlar, hisobotlar va tahliliy materiallar tayyorlaydi. Jumladan, ko‘nikmalar prognozi, malakalar tahlili va kasbiy ta‘lim samaradorligiga oid tadqiqotlar olib boradi. Mazkur agentlikning ilmiy ishlari Yevropa malakalar doirasi (EQF) va shogirdlik dasturlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. CEDEFOP tomonidan tayyorlangan ma‘lumotlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kasbiy ta‘lim siyosatini shakllantirishda keng qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham dual ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kasb-hunar maktablari va texnikumlarda dual ta‘lim elementlari bosqichma-bosqich joriy etilib, ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik aloqalari kengaytirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Dual ta‘lim bilan qamrov 5 barobar oshiriladi. Hamkor korxonalariga 5 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratiladi, dual ta‘lim orqali ishlayotgan o‘quvchilar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lov ikki barobar qisqartiriladi. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ish topishda chet tillarini bilish juda muhim. Shu bois, texnikumlardagi

¹ Bundesministerium für Bildung und Forschung (BMBF). *The German Vocational Training System* (rasmiy ma‘lumotlar).

² European Centre for the Development of Vocational Training (Cedefop).

xorijiy tillar uchun ajratilgan soatlar 4 karra ko‘paytiriladi.”³ Bu so‘zlar dual ta‘limni yurtimizda rivojlanayotganidan, bu yo‘nalish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan dalolatdir.

Ta‘lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish va zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu jarayon mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari bilan hamohang ravishda olib borilmoqda. Shu bilan birga, dual ta‘lim tizimini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha korxonalarda o‘quvchilarni qabul qilish va sifatli amaliyot tashkil etish uchun yetarli sharoit mavjud emas. Ba‘zi hududlarda ishlab chiqarish bazasining cheklanganligi tizim samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ustalarining malakasini oshirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Chunki dual ta‘limda pedagog nafaqat nazariy bilim beruvchi, balki ishlab chiqarish jarayonini tushunadigan mutaxassis bo‘lishi zarur.

Dual ta‘limning iqtisodiy ahamiyati ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Ushbu model korxonalarga o‘z ehtiyojiga mos kadrlarni tayyorlash imkonini beradi, bu esa qayta o‘qitish xarajatlarini kamaytiradi. O‘quvchilar esa o‘qish jarayonidayoq ish muhiti bilan tanishib, professional tajriba orttiradi. Natijada bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi oshadi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi kuchayadi.

Umuman olganda, dual ta‘lim tizimi nazariya va amaliyotni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu model nafaqat ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, balki iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashda ham muhim omil bo‘lib maydonga chiqmoqda.

Mening fikrimcha, dual ta‘lim tizimi O‘zbekistonda ta‘lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Chunki zamonaviy iqtisodiyot sharoitida faqat diplomning o‘zi yetarli emas, balki real ish tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Dual tizim aynan shu ehtiyojni qondiradi.

³ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 15-sentabrda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida bo‘lib o‘tgan tadbirdagi nutqidan.

Germaniya tajribasidan ko‘rinib turibdiki, tizimning muvaffaqiyati davlat, ta’lim muassasasi va korxonada o‘rtasidagi mas’uliyatli hamkorlikka bog‘liq. Agar O‘zbekistonda ham ana shunday mustahkam hamkorlik mexanizmi to‘liq shakllantirilsa, dual ta’lim iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanishi mumkin. Shuningdek, menimcha, dual ta’limni rivojlantirishda yoshlarning qiziqishi va kasb tanlash madaniyatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchi o‘z qiziqishi asosida tanlov qilsa, uning samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, dual ta’lim tizimi nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash orqali zamonaviy ta’limning samarali modeliga aylanmoqda. Ushbu tizim o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni mehnat bozoriga tayyorlash va yoshlar bandligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda dual ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim tizimini xalqaro tajribaga yaqinlashtirishga qaratilgan muhim qadamdir. Germaniya tajribasi esa ushbu modelning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Kelajakda dual ta’lim tizimini takomillashtirish, qonunchilik bazasini mustahkamlash va korxonalar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirish mumkin. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. European Centre for the Development of Vocational Training (Cedefop). *Vocational Education and Training in Europe* (turli yillardagi hisobotlar).
2. Bundesministerium für Bildung und Forschung (BMBF). *The German Vocational Training System* (rasmiy ma’lumotlar).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rasmiy hujjatlari – dual ta’limni rivojlantirishga oid qaror va farmonlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rasmiy materiallari.
5. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni-
<https://president.uz/oz/lists/view/8482>